

ALISHER NAVOIYNING “LAYLI VA MANJUN” DOSTINI SYUJETI TAHLILI

Po'latova Durdonaxon Kamoliddin qizi
Mallayeva Zulxumor Abdubannob qizi
Farg'ona davlat universiteti talabalari

Annotatsiya: *“Layli va Majnun” ko‘p asrlik tarixga ega. Uning ildizlari, mashhur adabiyotshunos-matnshunos akademik I.Krachkovskiy ta’kidlaganidek, VII asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. Ayrim arab manbalarining ma’lumotiga ko‘ra, Majnun tarixiy shaxs. U Bani Omar qabilasidan chiqqan, uning asl nomi Qays ibn Mulavvah (yoki Qays ibn Muod) bo‘lgan. U qabiladoshi Laylini sevgan va o‘z sevgisi, hijron azoblari haqida mungli she’rlar bitgan. Bunday ma’lumot ibn Qutaybaning “Kitobutshe’r va shuaro” asarida ham keltiriladi. Shu bilan birga, boshqa manbalar bu ma’lumotlarni rad etadi. Jumladan, arab olimi Avon ibn Hakim al-Qalbiy (764 yilda vafot etgan), arab tarixchisi Hishom al-Qalbiy (819 yilda vafot etgan)lar Majnun tarixiy shaxs emas, uning nomi majoziy, sevgi, hijron she’rlari esa umaviy xonadonga mansub bir oshiq yigit tomonidan bitilgan va asl nomini oshkor etmaslik uchun Majnun taxallusini qo‘llagan, deyishadi. Shu tariqa VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab arab poeziyasida Majnun taxallusli mungli she’rlar ko‘payib, keng tarqalib boradi. Vaqtlar o‘tishi bilan ko‘plab afsonalar, rivoyatlar to‘qiladi va ular turli manbalardan joy ola boradi.*

Kalit so‘zlar: *Majnun obrazi, Layli obrazi, Qays ibn Mulavvah, Qays ibn Muod, tarixiy haqiqat va badiiy haqiqat, genesis, salaflar.*

Yaqin va O'rta Sharq xalqlari adabiyotida Layli va Majnun mavzusiday keng tarqalgan boshqa bir ishq qissasini topish qiyin. Ushbu Layli va Majnun haqidagi qissa arab xalqlari orasida keng tarqalgani va g'oyat mashhur bo'lgani haqida I.Yu. Krachkovskiy shunday fikr bildirgan: "Sharqdagi "Layli va Majnun" g'arbdagi "Romeo va Juletta"ga nisbatan mashhurroqdir".

Layli va Majnun haqida ilk bor 1188-yilda ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy doston yaratgan. Ammo u asarni Xusrav va Shirin deb nomlagan va hikoya ular haqida so‘zlaydi. Nizomiy dostoni Sharq xalqlari adabiyoti keng shuhrat qozondi . Nizomiy „Layli va Majnun“ dostonini ham g‘oyaviy, ham badiiy jihatdan har tomonlama yuksak darajaga ko‘tardi va xamsachilik an‘analari qatoriga qo‘shdi. Undan so‘ng „Layli va Majnun“ dostoniga ko‘plab shoirlar murojaat qilishdi. Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Fuzuliy, Alisher Navoiy qalamlariga mansub „Layli va Majnun“ dostonlari mashhur. Garchi ushbu dostonlar bitta nom bilan atalsa va ulardagi voqealar tizimi bir-biriga juda o‘xshash bo‘lsada, har bir muallifning „Layli va Majnun“i o‘ziga xos va betakror asardir. Hozirgacha mazkur dostonning o‘zbek, arab, fors, ozarbayjon, turk, turkman, tojik, gruzin, panjob, kurd, urdu tillaridagi ko‘plab variantlari mavjud. „Layli va Majnun“ dostoni xalq og‘zaki ijodi ravnaqiga ham beqiyos ijobiy ta’sir

ko'rsatgan. Jumladan, o'zbek xalq ijodiyotining „Tohir va Zuhra“, „Oshiq G'arib“ kabi dostonlariga „Layli va Majnun“ning ta'siri borligi e'tirof etiladi. Layli va Majnun fors-turkiy romantik dostonidir. Chunki bu dostonlarni dastlab fors tarixiy asari „Shohnoma“da (Firdavsiy), keyinchalik shoir Nizomiy Ganjaviyning „Xusrav va Shirin“ dostonida va buyuk turkiy shoir Alisher Navoiyning beshligi bo'lmish "Xamsa"sida uchraydi. Voqeyiy bo'lmish bu hikoya Navoiyning "Xamsa"sida Qays ibn al-Mulavvo ismli arab yigitining Layli ismli qiz bilan ishqiy munosabatlari yoritiladi. O'g'lining bu qizga uylanishiga qarshi chiqqan otasining tazyiqlari va ayriliq tufayli Qays aqldan ozib, devona bo'ladi („majnun“ va „jinni“ "dali" so'zlarining o'zagi bir).

Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni turkiy tilda ushbu mavzuda yozilgan ilk doston bo'lib, Navoiy uni yaratishdan avval arab rivoyatlari bilan bir qatorda Nizomiy Ganjaviy „Xusrav Dehlaviy, Ashraf Marog'iy va Shayxim Suhayliy dostonlarini chuqur o'rganadi. Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida o'z davrigacha 12 ta "Layli va Majnun" dostoniga javob yozganlarning ism sharifini keltirib o'tadi. Layli va Majnun" - Alisher Navoiy "Xamsa"sining uchinchi dostoni (1484). U 3622 baytdan iborat bo'lib, shu mavzudagi dostonlarga xos aruz vaznining "hazaji musaddasi axrabi mak, buzi mahzuf" baxrida yozilgan. Navoiy ushbu dostonni turkiy tilda yaratgan birinchi muallifdir. Alisher Navoiy Layli va Majnun sarguzashtlarining an'anaviy syujet chizig'ini saqlab qolgan holda voqealarga yangicha ruh va mazmun baxsh etdi hamda dostonga yangi timsollar kiritdi. Doston Sharq mumtoz adabiyotining an'alariga muvofiq ikkita: zohiriy (ochiq) va botiniy (yashirin) ma'nolarga ega. Zohiriy ma'no oddiy o'quvchiga ham tushunarli bo'lib, unda ikki yosh muhabbati o'z ifodasini topgan. Botiniy ma'no esa ramziy-majoziy tasvirlarga o'ralgan bo'lib, unda muallifning falsafiy qarashlari aks etgan. Navoiy dostonning ilk bobidayoq o'quvchiga o'z ramzlarining kalitini taqdim etadi. Ya'ni u Laylining manzar (ilohiy husn aks etgan) ligini, Majnun esa Iloh ishqida aqldan ajraganini ta'kidlaydi.

Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni Bani Omir qabilasida uzoq kutilgan o'g'il - Qaysning dunyoga kelishi, Uning tug'ilgandan ishq olovi bilan tug'ilishi shunday ta'riflanadi:

O't ko'rsaki mayl etib nihoniy,
Ishq o'ti tasavvur aylab oni.

Uni 4-5 yoshlaridan Layli qabilasiga o'qishga beradilar. Qays maktabda tez saboq chiqaradi va qisqa fursat ichida barcha ilmlarni o'zlashtiradi. Qays bir kun bog'da sayr qilib yurgan Laylini uchratadi va husnda tengsiz go'zalni ko'rib hushini yo'qotadi. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, guliston darveshning ruhiyati, uni Haq ishq egallab oladi va u betoqatlanib, hushini yo'qotadi. Shu tarzda majzubi solikning sarguzashtlari boshlanadi. Qays shu tariqa Laylini har ko'rganida hushidan ketadi va xalq orasida "Majnun" laqabi bilan ovoza bo'ladi:

"Layli, Layli!" - debon chekib un,
El deb: "Majnundur, ushbu majnun"

Shu voqealardan soʻng Majnuning ota-onasi uni Layliga uylantirish bilan dardiga chora topmoqchi boʻladilar va Laylini qabilasiga sovchi yuboradilar. Lekin Laylining otasi qizini aqldan ozgan "devona"ga berishdan or qiladi va Majnuni qabilalariga kelishini taʼqiqlab qoʻyishadi. Majnuni otasi oʻgʻilini olib Ka'ba ziyoratiga olib ketadi. Majnun Ka'bada Allohga munojot etib, Layli ishqini koʻngliga mustahkamroq jo etishini soʻraydi. Mazkur lavha dostonning eng taʼsirchan oʻrinlaridan biridir. U yerdan qaytgan Majnun yana sahroga chiqib ketadi va Navfalni uchratib qoladi. Navfal Majnunga yordam berish maqsadida Layliga sovchi yuboradi va otasi rozi boʻlmagach unga qarshi urush ochadi. Laylining otasi urushda yengilishini sezib qizini oʻldirmoqchi boʻladi. Bu holat Majnunga tush orqali ayon boʻladi va Navfaldan urushni toʻxtatishini soʻraydi. Majnun va Layli ishq dashtida uchrashadilar. Navoiy bu uchrashuvni chuqur hayajon bilan tasvirlaydi.

Dostonning eng taʼsirchan boblaridan yana biri bu Majnuning ota-onasi vafot etgani haqidagi bobdir. Bu bobda Majnuning iztiroblari, gʻam-alamlari chuqur hissiyot bilan tasvirlanadi. Majnunning ota-onasi vafot etganini eshitgan Laylining ham ahvoli oʻzgarib, betob boʻlib qoladi, hech bir tabib bunga davo topa olmaydi. Majnun esa bu holatni ilohiy bir kuch bilan sezib Layli qabilasiga keladi va bir-birini ishqida kuyganlar Ruhi mutlaq tomon ravona boʻladilar.

Alisher Navoiy "Layli va Majnun"ni nafaqat mazmunan, balki badiiy jihatdan ham ushbu mavzudagi dostonlarning sarasiga aylantirdi. Navoiyning "Layli va Majnun"idan soʻng xalqimizda ushbu dostonning koʻplab folklor variantlari ham vujudga keldi. Xalqning dostonga boʻlgan qiziqishi natijasi oʻlaroq, 19-asrda Umar Boqiy tomonidan "Layli va Majnun"ni nasriy muxtasar bayoni yaratiddi. "Layli va Majnun" dostoni asosida sahna asarlari va videofilm ham bor.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Navoiy A. Layli va Majnun. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2006.
2. Предисловие Е.Дунаевского к поэме Незами Гянцеви: Лейла и Меджнун, перевод А. Глоби, М., 1935.
3. Насир Хусрау. Сафар-наме. Книга путешествия. Перевод и вступительная статья Е.Э.Бертельса, Мос-Лен., 1933.
4. Игнатий Юлианович Крачковский. Избранные сочинения. Том II. МосЛен: Академии наук СССР, 1956.